

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TAYLIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

**Nammqi**  
O'quv-ushbuviy boshqarma  
№ 688  
«3» 08 2024 y.



TASDIQLAYMAN  
Namangan muhandislik-  
qurilish instituti rektori  
Sh. T. Ergashev  
2024 yil .. ..

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK  
FANINING  
O'QUV DASTURI

Bitim sohasi: 7000000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari  
Taylim sohasi: 7300000-Arxitektura va qurilish  
Taylim yo'nalishi: 60730100-Arxitektura (turlari bo'yicha)

Namangan-2024

Fan moduli kodi MNOVII.1404	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	ESTS - Kreditlar 4
Fan moduli turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftalik dars soatlari 4
Fanning nomi Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik	Auditoriya mas'ulotlari, soat	Mustaqil ta'lim, (soat)	Jami yuklama (soat) 120

**I. Fanning mazmuni**

Oliy ta'lim muassasalarida Arxitektura yo'nalishidagi ta'lim sohasi coxaxa G'iyohqa Gaxarapnapiur tayyorlash uchun " Hayot va inson faoliyatini havfsizligi " fan sifatida kiritilgan. Mazkur fan bo'yicha o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari va Malaka talablaridan bakaalavr tayyorlash mazmuni va saviyasini majburiy minimumiga bo'lgan talablariga muvofiq tuzilgan. Ma'lumki, hozirgi fan taraqqiyoti, texnika va umumiy holda sanoat tarmoqlarining rivoji ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Bularning barchasi ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, amalda xavfsizlikni ta'minlash orqali, ishlab chiqarishda bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning va iqtisodiy yo'qotishlar oldi olishdan iborat bo'lib nazariy mashg'ulotlar " Hayot va inson faoliyatini havfsizligi " fanining maqsadi, vazifalari, tushunchalari va ta'riflari, mehnat muhofazasining huquqiy-me'yoriy asoslari, mehnat muhofazasining tashkiliy asoslari, texnika xavfsizligi katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskuna va qurilmalarni ishlatishdagi xavfsizlik texnikasi manayrupnapiur iborat.

Fan o'qitilishning maqsadi - bo'lajak Arxitektura yo'nalishlardagi bakalavrlarga turli tushdagi texnologik jarayonlarda m'Vyud xavfli va zararli omillardan himoyalalanish, yonish-portlash yuz berganda inson hayotini, fuqarolarni, shuningdek moddiy boyliklarni muhofaza qilish, talafot olganlarga birinchi yordam berish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

**II. ASOSiy QISM**

**Ma'rza mas'g'ulotlari**

**1-mavzu. "Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik" faniga kirish.** Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik haqida tushuncha. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikning terminlari. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obektlari. Mehnatni muhofazasining nezarly asoslari.

**2-mavzu. Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari.** Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi.

**3-mavzu. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik va psixologik asoslari.** Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika asoslari asosiy prinsip va usullari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Inson faoliyatini tashkil qilishning psixologik jihatlari. Ish joylarini estetik jihatdan jihozlash.

**4-mavzu. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish.** Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi. xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarni rejalashtirish. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini

mablag' bilan ta'minlash.

**5-mavzu. Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimini tekshirish va o'qitish.** Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish va qayta tayyorlash tizimi. Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash ni tashkil qilish. Bilimlarni tekshirish va baholash tizimi samaradorligi.

**6-mavzu. Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari.** Ishlab chiqarishda mehnat qobilyatini yo'qotilishi. Faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan avariyaalar. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqitida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish. N-1 shakldagi dalolanomani to'ldirish tartibi.

**7-mavzu. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigienasi me'yori va qoidalari.** Ishlab chiqarish chiqarish sanitariyasi va gigienasi. Sanitariya me'yori va qoidalari. Ishlab chiqarish ob'ektlariga qo'yiladigan umumiy talablar. Ish joyidagi havo muhitining ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo (qulay mikroqim)sharoini. Changlarning hosil bo'lishi. Havo muhitini tekshirish.

**8-mavzu: Qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarishda mehnat gigienasi.** Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qurilish sanoatini rivojlantirish atamiyati. Qurilish materiallarini texnologik jarayoni, g'isht, sopol, sement, temir-beton mahsulotlarini ishlab chiqarishda mehnat gigienasi. Qurilish sanoatining o'ziga hosiligi va mehnat sharoitlariga gigienik baaho berish. Quruvchilarga ta'sir qiluvchi zararli va xavfli omillar, umumiy va kasb kasalliklarini kelib chiqishi. Quruvchilar va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarni mehnat sharoitidagi zarari va xavfli omillarni oldini olish chora-tadbirlari.

**9-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish va yoritish tizimi.** Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi ularning turlari. Umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. Ishlab chiqarishda yoritish va uni meyorlari. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishga qo'yiladigan sanitariy-gigienik talablar. Yoritish vositalari va turlari.

**10-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash.** Shovqin va titrash inson organizmiga zarari ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va maabhalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash. Ultra va infraqushlarning inson organizmiga zarari ta'siri. Yuzaga kelish maabhalari va sabablari. Himoyalalanish vositalari.

**11-mavzu. Xavfsizlik texnikasi.** Xavfsizlik texnikasi xizmati va uning vazifalari. Sanoat korxonalaridagi xavfsizlikning texnik asoslari va umumiy talablari. Xodimlarning shaxsiy himoya vositalari va ularga qo'yiladigan talablar. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar belg'lash vaxavfsizlik usullarini o'qitish

**12-mavzu. Katta energiya va bosim ostidagi idishlarni ishlatganda xavfsizlik talablari.** Bug' va suv qozonlarini ishlatishda xavfsizlik talablari. Suyultirilgan, eritilgan va yuqori bosimdagi gazlar saqlanuvchiballonlarini ishlatishda xavfsizlik talablari. Avtoklav uskunalarini ishlatishda xavfsizlik talablari. Kompresor qurilmalarini ishlatganda xavfsizlik talablari.

**13-mavzu. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi.** Elektr xavfsizligi. Elektr tokining turlari. Elektr tokining inson organizmiga ta'siri. Elektr qurilmalardan xavfsiz foydalanish uchun qo'yiladigan umumiy talablar. Elektr tokidan zararlanshlarining yuzaga kelishi. Elektr tokidan shikastlanishni oldini olishda texnik chora va shaxsiy himoya vositalari. Yerga ulash va uning ahamiyati.

**14-mavzu. Yong'in xavfsizligini ta'minlash choratlari** Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'inga qarshi bardoshlilik darajalari. Sanoat korxonalarining yong'inga va portlashga

xavfi bo'yicha tofalari.

**15-mavzu. Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari** Respublikada halokatar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari, Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartibi va qoidalari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turli, vaqitlacha to'xtatish usullari.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni amaliy mashg'ulotlarni ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda bajarishni o'z ichiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar ishlab chiqarish korxonalarining mehnat muhofazasi bo'limlari tomonidan yuritiladigan me'yoriy hujjat bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

#### Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanining asosiy tushunchalari mohiyati; xavf turlarini, ularni guruhlash va identifikatsiyalash.
2. Hayot va inson faoliyati havfsizligining qulay sharoitlari, ishchi o'rning ergonomikasini
3. Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etishda ish beruvchining vazifalarni o'rganish.
4. Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etishda mehnat muhofazasi muhandisining huquq va majburiyatlarini o'rganish.
5. Mehnat sharoitini baholash va mehnat sharoiti bo'yicha ish o'rinlarini attestatsiya qilish metodikasini o'rganish.
6. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashish tartibi.
7. Kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari. N-1 shakldagi dalolatnoma va uni to'ldirish tartibini o'rganish.
8. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.
9. Mexanik jarohatlanishdan muhofazalanish va muhofazalovchi vositalarni aniqlash.
10. Elektr tokidan himoya qiluvchi vositalarni o'rganish. Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri.
11. O'zbekiston Respublikasi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunini o'rganish.
12. Yong'in o'chirishning asosiy vositalari va ularni amalda qo'llash usullari.
13. Mehnat to'g'risidagi qonunchilikning amal qilish sohasini o'rganish.
14. Xodimning huquqlari va majburiyatlarini o'rganish.
15. Ish beruvchining huquqlari va majburiyatlarini o'rganish

### III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada rejalashtirilgan.*

#### IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Seminar mashg'ulotlari o'quv rejada rejalashtirilgan.*

#### V. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Kurs ishi (loyihasi) o'quv rejada rejalashtirilgan.*

### VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mazkur fandan mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar yangi innovatsion va kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan holda yozma va og'zaki shaklda olinadi. Bunda uchta o'zaro bog'liq anglash va fiod qilish faoliyatini o'z ichiga oladi: mashg'ulotlarda olingan axborotni qayta ishlash, qabul qilinganlarini tizimlashtirish, mustaqil shakllantirish, xulosalash va umumlashtirish.

Mustaqil ta'limning birinchi topshirig'i barcha uchun majburiy bo'lib, uni bajargan talaba oraliq nazorat uchun belgilangan maksimal ballning 60%ini qo'lga kiritadi. Ikkinchi va uchinchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan tartibda bajarish talabga oraliq nazorat uchun yuquri ball olish imkonini beradi. Ular mos ravishda birinchi va ikkinchi oraliq nazorat ballariga qo'shildi.

#### Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlov ko'rish. Bunda talaba har bir amaliy mashg'ulotlari mavzulariga tayyorlov ko'rish va uni konspektlashish uchun ARMa ishlash, elektron resurslardan foydalanish lozim.
2. Esse yozish. Bunda talaba tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1ta mavzu tanlab oladi va tanlagan mavzusini esse shaklida bayon qiladi. U mavzuning mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lishi lozim.
3. Tavsiya etilgan mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha laqdimotlar va referatlar tayyorlash

#### Referatlar va laqdimotlar tayyorlash uchun tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va usulbarini tahlil qilish.
3. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
4. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
5. Ish o'rmini tashkilloshtirishning talablari.
6. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
7. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarining ahamiyati.
8. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi.
9. Hayot va inson faoliyati havfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
10. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
11. Odam anatomiyasining (antropometrik parametrlarining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12. Hayot va inson faoliyati havfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar axlili.
13. Hayot va inson faoliyati havfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlil.
14. Shovqin va titrashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.
15. Mashina va mexanizmlar uchun xavfsizligi texnikasi talablari.
16. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.
17. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlarni ko'g'risida statistik ma'lumotlar taxlil.
18. Yong'in dan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari. 20. Xalqaro

<p>terrorizm va terroristik tashkilotlar.</p> <p>19. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen xavflar.</p> <p>20. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.</p> <p>21. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish" to'g'risida gi qonun.</p> <p>22. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVD)ning strukturaviy tuzilishi.</p> <p>23. O'zbekiston Respublikasi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>24. O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>25. O'zbekiston Respublikasi "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>26. O'zbekiston Respublikasi "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>29. "Sanitariya nazorati to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>27. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi qonuni.</p> <p>28. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obyektlari.</p> <p>29. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.</p> <p>30. Korxonalarda ishchilarni mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash.</p> <p>31. Ish joylarini sharoitiga ko'ra atlestasiya qilish, korxonalaridagi mehnatni muhofazalash ishlari bo'yicha sertifikatlashtirish.</p> <p>32. Davlatimizda va chet elardagi Hayot va inson faoliyati xavfsizligini madaniyatni holati.</p> <p>33. Hayot va inson faoliyati xavfsizligining madaniyatni umumiy tavsifi, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy asoslari.</p> <p>34. Hayot va inson faoliyati xavfsizligining madaniyatni tushunchasi.</p> <p>35. Hayot va inson faoliyati xavfsizligining madaniyatni tashkil etish ob'yektlari.</p> <p>36. Hayot va inson faoliyati xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalar.</p> <p>37. Xodimlarning xavfsiz faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari.</p> <p>38. Ish beruvchining majburiy javobgarligi.</p> <p>39. Mehnat xavfsizligi bo'yicha xodimning bilimlarini tekshirish. Insonning faoliyat jarayoniga adaptatsiyasi</p> <p>40. Yo'l qurilishi mashinalarini ishlatishda xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar tuzish.</p>	<p><b>VII. Ta'lim natijalari / kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p>3. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. <b>Talablar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat huquqi va ularni o'rganish;</li> <li>- ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;</li> <li>- zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish;</li> <li>- yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish;</li> <li>- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi to'g'risida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>.</li> </ul> <p>- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarini va</p>
---	--

<p>boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining asosiy talablarini:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining yuzaga kelishining oldini olish usullarini;</li> <li>- ishlab chiqarishda mikroqitilmning gigiyenik me'yorlarini tashkil etishni <b>bilishi va ularidan foydalana olishi</b>;</li> <li>- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etishni;</li> <li>- korxonada faoliyat davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish uslublari;</li> <li>- korxonada faoliyat davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish vositalarini ishlatish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>	<p><b>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>-Ma'ruzalar;</p> <p>-Amaliy (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</p> <p>-Guruh va kichik guruhlarda ishlab;</p> <p>-Taqdimotlar qilish;</p> <p>-Jamoa bo'lib ishlash.</p>	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>5. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini (testni) muvofiqiyatli topshirishi kerak bo'ladi.</p>	<p><b>Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Berman Press. Germaniya, 2007</p> <p>2. N.S. Baxriddinov. «Hayot va inson faoliyati xavfsizligi». O'quv qo'llanma.-T.: "DIMAL", 2024. 371b</p> <p>3. A. T. Mamadaliyev, Z. N. Mamadjanov, M. M. Sobirov. «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi». Darslik.-T.: "DIMAL", 2024. 416 b</p> <p>4. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot va inson faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.: "Yangi nashr", 2019.-234 b.</p> <p>5. Q.X. Murtaydinov, H.M. Qodirov, E. Yu. Yulchiyev. Ekologiya. Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2020. 400 bet.</p> <p>6. A. Raaxmatov va boshqalar. «Injenerlik ishlari va ishlab chiqarishda inson faktori». O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009.</p> <p>7. E. I. Ibragimov, S. Gazizazarova, O. R. Yuldashev. "Me'nat muhofazasi maxsus kursi" Toshkent – 2014.</p> <p>8. Q. Abduraxmonov, A. Irmatova. "Me'nat muhofazasi". O'quv qo'llanma Toshkent — 2015.</p> <p>9. Baxriddinova N. M., Sulaymanov S.S. "Hayot va inson faoliyati xavfsizligi" O'quv qo'llanma. Buxoro-2020.</p> <p>10. H.X. Razzakov, Sh.A. Mamasov. "Hayot va inson faoliyati xavfsizligi" O'quv qo'llanma. Toshkent — 2019.</p>
---	--	--	--

**Qo'shimcha adabiyotlar**

8. Yuldashev O.R., Djahong'ova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik.-T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.-268 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2022. –56b.
10. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
11. D.Yo. Yorg'atova, X.S. Xushvaqilova. " Ekologiya va tabiiatni muhofaza qilish". Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2018, 200 b.
12. Н.И.Ченегла, Т.В.Маслова. "Правила по охране труда в сельском хозяйстве". Учебное пособие. Электронное издание. Красноярск 2021.

**Аxborot manbalari**

13. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
14. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

7	<b>Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashining «_» _____2024 y.dagi ___ sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.</b> Fan/modul uchun mas'ullar: Sh.Mamadaliyev – NamMQI "Me'nat muhofazasi va ekologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi. Q.Mashrabov - NamMQI "Me'nat muhofazasi va ekologiya" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.
8	Taqritchilar: L.Mamajonov – NamDU. "Biotehnologiya" kafedrasida dotsenti. Z.To'rajev – NamMQI Kimyoviy texnologiya kafedrasida professori, texnika fanlari doktori.